

Yangi texnikalar xizmatda

"Ish quroling soz bo'lsa mashaqqating oz bo'lar" deganlaridek, qishloq xo'jaligida mo'l hosil olishda texnikalar sozligi alohida ahamiyatga ega. «O'zqishloqxo'jalikmashlizing» aktsiyadorlik kompaniyasining Qoraqalpog'iston Respublikasi filiali respublikamiz qishloq xo'jaligini yangi zamonaviy texnikalar bilan ta'minlamoqda. Ular safida surim traktorlari, kombaynlar va ekinlarning qator oralariga ishlov beruvchi yangi rusmdagi texnikalar bor. 22 dona surim traktori, 34 dona "Dominator-130" markali o'rim kombayni, TTZ markali traktorlari bilan birga 62 dona boshqa texnikalarning soha xodimlariga topshirilishi ish unumdorligi va sifatini oshirishda katta ahamiyatga ega. Bu texnikalar "UzCLASS" O'zbekiston-Germaniya, "UzKeys" O'zbekiston-Amerika, Koreya va "Toshkent qishloq xo'jaligi texnikasi zavodi" da ishlab chiqarilgan.



Yangi texnikalar yuqori sifatli mahsulot olishda, eng asosiysi dehqonlarimizning og'irini yengil qilib o'z ishiga shijoat bilan yondoshishda asosiy kuch bo'lib xizmat qiladi.

Ko'rib chiqildi:

- 
- 
- 

[Vazirlar Kengashi](#) [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)
[Vazirliklar va idoralar](#) [Shahar va tuman hokimliklari](#)
[Hujjatlar Respublika mehmonlariga](#) [Elektron hukumat](#) [Interaktiv davlat xizmatlar](#)